

NEMIS MAQOLLARIDA MILLIY MENTALITET VA MADANIY QADRIYATLAR IFODASI

Rahmatullayeva Dilrabo

O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti stajyor-o'qituvchisi

@Mail-dilrabo_rahmatullayeva@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17522274>

Annotatsiya

Til millatning ruhiyati va tarixiy xotirasining ifodasidir. Nemis tili maqollarida xalqning dunyoqarashi, hayotiy falsafasi, mehnat, vaqt, intizom va jamiyatdagi o'zaro hurmatga asoslangan qadriyatlari mujassamdir. Ushbu tadqiqot nemis xalqining mentalitetini maqollar orqali yoritish, ularning semantik va kognitiv asoslarini aniqlash hamda madaniyatlararo kontekstda tahlil qilishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: *maqol, milliy mentalitet, qadriyat, kognitiv metafora, lingvokulturologiya, nemis tili.*

THE EXPRESSION OF NATIONAL MENTALITY AND CULTURAL VALUES IN GERMAN PROVERBS

Rakhmatullayeva Dilrabo

Intern teacher at the Uzbekistan State World Languages University

@Mail-dilrabo_rahmatullayeva@mail.ru

Abstract: Language is an expression of the spirit and historical memory of a nation. The proverbs of the German language embody the worldview of the people, their life philosophy, their values based on labor, time, discipline, and mutual respect in society. This research is aimed at highlighting the mentality of the German people through proverbs, identifying their semantic and cognitive foundations, and analyzing them in an intercultural context.

Key words: *proverb, national mentality, value, cognitive metaphor, linguoculturology, German language.*

Аннотация: Язык-это выражение психики и исторической памяти нации. Пословицы немецкого языка воплощают мировоззрение народа, жизненную философию, ценности, основанные на труде, времени, дисциплине и взаимном уважении в обществе. Это исследование направлено на то, чтобы пролить свет на менталитет немецкого народа с помощью пословиц, выявить их семантическую и когнитивную основу, а также проанализировать их в межкультурном контексте.

Ключевые слова: *пословица, национальный менталитет, ценность, познавательная метафора, лингвокультурология, немецкий язык.*

KIRISH

Nemis tili maqollari nafaqat tildagi estetik obraz, balki milliy ruh va jamiyatning qadriyat tizimini aks ettiruvchi madaniy belgidir. Nemis xalqi qadimdan tartib, aniqlik, mehnatsevarlik va vaqtga hurmat bilan ajralib turgan xalq sifatida tanilgan. Ularning tilidagi ko'plab iboralar va maqollar bu qadriyatlarni ramziy shaklda aks ettiradi va nafaqat tilning semantik boyligini, balki xalq tafakkuridagi qadriyatlarning ifoda mexanizmini ko'rsatadi. Maqollar xalqning mental dunyosiga, ijtimoiy-axloqiy me'yorlariga kirish kalitidir.

Maqolaning dolzarbligi shundaki, bugungi globallashuv davrida madaniyatlararo muloqot samaradorligi til orqali milliy mentalitetni anglashga bog'liq. Shu bois nemis tili maqollarini lingvokulturologik tahlil qilish xalq ruhiyatini tushunishning muhim vositasidir

Nemis xalqi uchun tartib, aniqlik va mehnatsevarlik asosiy qadriyatlardan hisoblanadi. Bu qadriyatlar ko'plab maqollarda o'z ifodasini topgan:

1. Tartibsevarlik va intizom

„*Ordnung ist das halbe Leben*“ (tartib hayotning yarmi) maqolining ma'nosi - tartib va intizom – muvaffaqiyat va qulay hayotning asosi. U kundalik hayotdagi tozalik, rejalilik va mas'uliyatni ifodalaydi. Nemislar hayotining barcha sohasida tartib va aniqlik muhim o'rin tutadi. Ular uchun „tartib“ faqat tashqi emas, ichki intizom ruhiy barqarorlik, ijtimoiy tizim va mantiqiy hayot belgisidir. Lingvokulturologik talqiniga ko'ra, „Ordnung“ so'zi nemis tafakkurida ijobiy emotsional soya kasb etadi - u barqarorlik, xavfsizlik va isbotlangan tizimga sodiqlikni bildiradi.

2. Mehnatsevarlik va natijaga yo'naltirilganlik

„*Ohne Fleiß kein Preis*“ (Mehnatsiz mukofot yo'q) maqolining ma'nosiga ko'ra natijaga erishish uchun har doim mehnat qilish kerakligi ta'kidlanadi. Bu nemis xalq maqoli deyarli har bir bolalikka singdirilgan. U mehnatning qadrini ta'kidlaydi. Nemis jamiyatida muvaffaqiyat tasodifiy emas, balki intizom va harakat natijasi sifatida qabul qilinadi. Mehnatni qadrlash esa xalqning asosiy qadriyatlaridan biridir.

3. Mas'uliyat va ishonchlik

„*Wer A sagt, muss auch B sagen*“ maqolining ma'nosi - boshlangan ishni oxirigacha yetkazish lozimligini anglatadi. Bu maqol mas'uliyatni oxirigacha bajarish zarurligini bildiradi. Nemis mentalitetida yarim yo'lda to'xtash - mas'uliyatsizlik alomati hisoblanadi.

4. Halollik va sodiqlik

„*Ehrlich währt am längsten*“ (Halollik eng uzoqqa yetadi) maqolidan esa halol insonning yo'li doimo barqaror va mustahkam bo'ladi degan ma'noni anglash mumkin. Bu eng mashhur nemis maqollaridan biri bo'lib, unga ko'ra halollik - barqaror hayotiy tamoyil degan fikrni bildiradi. Bu maqol orqali axloqiy tozalik va jamiyat ishonchining ahamiyati yoritiladi. Nemislar halollikni uzoq muddatli ishonch asosiga qurilgan qadriyat deb bilishadi.

5. Qonuniylik va adolat

„*Gesetz ist Gesetz*“ (Qonun - qonundir) –maqolida ikki marta takrorlangan „Gesetz“ (qonun) so'zi mavhum, ammo qat'iy tushuncha sifatida ishlatilgan. Takroriy qurilish orqali nemis tili qat'iylilik, murosasizlik va izchillik ma'nosini kuchaytiradi. Ya'ni, „qonun bor joyda bahs yo'q“ degan qat'iy pozitsiyani bildiradi. Nemis jamiyati tarixan qonuniylik va tartibga chuqur hurmat bilan qaraydi. Bu qadriyat mehnat axloqi, intizom va huquqiy davlat tamoyillari bilan shakllangan.

Nemis mentalitetida qonunni subyektiv his-tuyg'ulardan ustun qo'yish, „hamma qonun oldida teng“ degan prinsipiiallik va shaxsiy foydadan ko'ra, ijtimoiy adolatni afzal bilish odatiy hisoblanadi. Shu sababli „Gesetz ist Gesetz“ iborasi huquqiy madaniyatning konsentratsiyalashgan ifodasidir.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, maqollar nemis xalqining ijtimoiy psixologiyasi, madaniy qadriyatlari va mental dunyoqarashini o'zida mujassam etgan tildagi „madaniy DNK“dir. Ular orqali nemislarning hayotga bo'lgan qarashlari, ijtimoiy qadriyatlari va madaniy odatlari tildagi ramziy obrazlar orqali ifoda topgan. Til va tafakkur o'rtasidagi bu o'zaro bog'liqlik nemis

maqollarida nihoyatda aniq ko'rinadi. Shu bilan birgalikda har bir ibora ma'no jihatidan pragmatik, semantik va madaniy qatlamlarga ega.

Ular orqali intizom, mehnatsevarlik, vaqtga hurmat, tejamkorlik, tartib kabi qadriyatlar aniq ifodalanadi. Maqollar tahlili nafaqat lingvistik, balki kognitiv-madaniy jarayonlarni ham ochib beradi. Shu sababli, ularni o'rganish nemis tili madaniyatini, xalqning ruhiyatini va muloqot uslubini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Langenscheidt Großwörterbuch: Deutsch als Fremdsprache. München: 2010
2. Duden. Redewendungen und sprichwörtlichen Redensarten. Mannheim: Dudenverlag 2013
3. Burger, Harald. Phraseologie: eine Einführung am Beispiel des Deutschen Berlin: Erich Schmidt Verlag 2010
4. Fleischer, Wolfgang. Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache. Tübingen: Max Niemeyer Verlag 1997
5. Mieder, Wolfgang. Sprichwörter: Ein Lexikon der volkstümlichen Weisheit. München: Beck Verlag, 2007.
6. Röhrich, Lutz. Das große Lexikon der sprichwörtlichen Redensarten. Freiburg, Herder Verlag, 2023.
7. Palm, Christine. Sprichwörter und Redewendungen als Spiegel der Kultur. In: Muttersprache, 1999.
8. To'xtaeva, N. Frazologik birliklarda milliy madaniyat ifodasi. – Til va adabiyot ta'limi, 2021.
9. Usmonova, M. Nemis tilidagi maqollar va iboralarda milliy madaniyat aks etishi. – Jahon tillari universiteti ilmiy axboroti, 2019.